

**Boyev B.J. – TMI,
o‘qituvchi**

REAL SEKTOR KORXONALARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Maqolada iqtisodiyotning real sektor korxonalariga xalqaro moliya institutlaridan kapital jalb qilishning samaradorligi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kamchilik va yutuqlar o‘rganilgan, shu jumladan, mamlakatimiz real sektori tarmoqlariga Osiyo taraqqiyot bankidan jalb qilinayotgan mablag‘larning amaldagi holati tahlil qilingan. O‘rganilgan mavzu bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: real sektor, xususiy sektor, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi, Osiyo taraqqiyot banki, xorijiy kredit, xorijiy investitsiya, tijorat banklari.

В статье изучена эффективность привлечённого капитала международными финансовыми институтами в реальный сектор экономики, его особенности, недостатки и достоинства, в том числе приведён анализ действующего состояния по привлечённым средствам Азиатским банком развития. Приведены выводы и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: реальный сектор, частный сектор, модернизация экономики, Азиатский банк развития, иностранный кредит, иностранные инвестиции, коммерческие банки

In the article studied the effectiveness of attracted capital by international financial institutions in the real sector of the economy, its features, shortcomings and advantages, including an analysis of the current state of attracted funds by the Asian Development Bank. Presents the findings and practical recommendations

Key words: real sector, private sector, economic modernization, Asian Development Bank, foreign credit, foreign investments, commercial banks

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo‘lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta‘minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Xalqaro valyuta fondi(XVF), XVF ning maxsus fondlari, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Yevropa hamjamiyatining mintaqaviy valyuta-kredit va

moliyaviy tashkilotlari, Yevropa investitsiya banki, Islom Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banklari eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish maqsadida respublikamizni har jihatdan qo‘llab kelmoqda. Mazkur maqolada ushbu hamkorlikning ayrim jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki xususiy va real sektorni rivojlantirish jarayonida davlatning ichki moliyaviy resurslari yetishmasligi kuzatilib, xalqaro moliya institutlaridan kreditlarni jalb etishga bo‘lgan talab yanada oshib borada. Bugungi kunga kelib xalqaro moliya munosabatlarida xalqaro moliya institutlarini ahamiyati yuqori hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari yirik moliyaviy resurslarga va katta vakolatlarga ega hisoblanadi. Bu tashkilotlar jahon moliya-kredit munosabatlarining asosini tashkil etadi. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik mamlakat uchun nafaqat yirik mablag‘larni iqtisodiyotga jalb etish imkonini beradi, balki jahon moliyaviy munosabatlarida o‘z o‘rni va ovozi ega bo‘lish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Mustaqillikni dastlabgi yillaridan boshlab O‘zbekiston bir qator xalqaro moliya institutlari bilan ko‘p tomonlama iqtisodiy aloqalarini yo‘lga qo‘yib kelmoqda. Jumladan: Xitoy Davlat Taraqqiyot banki, Koreya Eksport-import banki, Islom Taraqqiyot banki, Osiyo Taraqqiyot banki, Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Jahon banki singari xalqaro moliya institutlari bilan ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika, sohalarida hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida amalga oshirilayotgan institutsional o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Moliyaviy resurslarni cheklanganligi sababli ularni safarbar qilish va samarali ishlatishning moslashuvchan mexanizmini davlat investitsion siyosati doirasida hamda alohida olingan korxonalar miqyosida tashkil etilishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi”. - deb ta’kidlagan edilar muhtaram Birinchi prezidentimiz Islom Karimov. [1] Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda, har bir soha va tarmoqni jadal rivojlantirishda xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablag‘lar muhim ahamiyatga ega.

Real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag‘batlantirish masalalari alohida o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-

quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi (2008-yil 28-noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda real sektor tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini xorijiy kredit liniyalari hisobidan, davlatning ichki mablag'lari hisobidan moliyalashtirish orqali ishlab chiqarish sur'atini oshirish va respublikamiz mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish imkoniyati yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilayotgan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishining [2] aynan uchinchi yo'nalishi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy soha, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport sohalarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda (rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari [3].

Hozirgi davrda O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning real sektori barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotganligini e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov e'tirof etganlaridek, "Erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va ularni joriy etish borasida 2016-yilda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz" [4]. 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiyotni isloh etish, tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda ilg'or texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 2016-yilda ham iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minladi. Xususan, respublikamiz iqtisodiyotida barcha moliyalash manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga oshib, 16,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. [5] Bunda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 53,3 foizi korxona va aholining o'z mablag'lari, 15,3 foizi xorijiy investitsiyalar va kreditlar, 10,3 foizi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzarlar, 4,5 foizi davlat budjeti, 4,7 foizi davlat maqsadli jamg'armalari hamda 4,7 foizi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. [5] Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, o'z navbatida, aholining

moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshib borishida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro moliya institutlari bilan olib borilayotgan hamkorlik doirasida 2016-yilda xalqaro moliya institutlarining 206,7 million dollar miqdoridagi kredit liniyalari o‘zlashtirildi. O‘z navbatida, xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinayotgan kreditlar esa, asosan infratuzilma ob’ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari bo‘yicha uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining real sektorini moliyalashtirishning asosiy manbalari dinamikasiga baho beramiz.

1-jadval

Mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektoriga yo‘naltirilgan investitsiyalar va tijorat banklari kreditlarining hajmi va dinamikasi [6]

Moliyalashtirish manbalari	Yillar					2016-yilda 2012-yilga nisbatan o‘zgarishi
	2012	2013	2014	2015	2016	
Investitsiyalar, (mlrd so‘m)	22022	27366	35367	44398	49476	2,2 marta
Shu jumladan: Xorijiy investitsiyalar, (mlrd AQSH dollari)	2,5	3,1	3,1	3,3	3,7	148 %
Tijorat banklarining kreditlari, (trln so‘m)	20426	26530	34809	42685	53400	2,6 marta
Shu jumladan: Uzoq muddatli kreditlar (trln so‘m)	15687	21038	27708	34062	42720	2,7 marta

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2012-2016 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektoriga yo‘naltirilgan investitsiyalar va tijorat banklari kreditlarining o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Shuningdek, investitsiyalar va kreditlarning o‘shish sur’ati 2016-yilda 2012-yilga nisbatan juda yuqori bo‘lgan. Bu esa, real sektor korxonalarini moliyalashtirishni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda nafaqat davlat sektoriga, balki xususiy sektorga ham xalqaro kapital mablag‘larini jalb qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi banklarida bir qancha moliya institutlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida xorijiy kredit liniyalari ochilgan. Ular orqali xususiy sektorni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Quyidagi ma’lumotlar yirik xalqaro moliya instituti bo‘lgan Osiyo Taraqqiyot banki mablag‘larining O‘zbekiston Respublikasida xususiy va real sektorlar taraqqiyotida muhim investitsion manba bo‘lib xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda Osiyo taraqqiyot bankining a‘zosi bo‘ldi va 1997-yilda Toshkentda Osiyo taraqqiyot banki vakolatxonasi ochildi. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo Taraqqiyot banki bilan o‘zaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 30 apreldagi “Osiyo rivojlanish banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 186-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

2-jadval

2016-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonga Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan jami mablag‘lar sohalar bo‘yicha taqsimlanishi, mln.doll [7].

Soha	Zayomlar soni	Ajratilgan mablag‘ hajmi (mln dollar)	Foizda
Qishloq xo‘jaligi, tabiiy resurslar	28	581.74	11.15
Ta‘lim	21	296.95	5.69
Energetika	22	1,541.20	29.55
Moliya	23	629.94	12.08
Sog‘liqni saqlash	4	41.60	0.80
Sanoat va savdo sotiq	3	175.68	3.37
Davlat hokimiyatini boshqarish	15	29.73	0.57
Transport	28	1,329.85	25.50
Suv ta‘minoti, kommunal xizmatlar va infrastruktura	21	589.12	11.29
Jami	165	5,215.79	100

Jadval ma‘lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2016-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonga OTBdan kredit, grant, texnik yordam va birgalikda moliyalashtirish uchun jami 5215,79 mln dollar qiymatidagi mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘larning katta qismi energetika sohasidagi loyihalarga tog‘ri keladi. Moliya sohasiga esa 629,94 mln dollar resurs jalb qilingan bo‘lib, mamlakatimizga yo‘naltirilgan jami mablag‘larning 12,08 foizini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslar uchun 581 mln dollar dan ortiq qiymatdagi loyihalar amalga oshirilgan. O‘zbekiston va OTB hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihalarning salmoqli qismi ya‘ni 25,5 foizi transport sohasidagi loyihalarga to‘g‘ri keladi.

Osiyo taraqqiyot banki va O‘zbekiston 2015-yil noyabrda mamlakat bilan hamkorlik strategiyasi (MHS) doirasida 2016-2018 yillarga mo‘ljallangan mamlakat operatsion biznes rejasi ham tasdiqlandi. 2016-2018 yillarga mo‘ljallangan mamlakat operatsion biznes rejasi doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun hukumat kafolati ostida 1814 mln dollar qiymatidagi mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

2017 yil mart oyida Osiyo taraqqiyot banki delegatsiyasining mamlakatimizga tashrifi doirasida esa mamlakatimiz vazirliklari va idoralarida o'tkazgan uchrashuvlari yakuni bo'yicha bankning 573 million dollarlik mablag'ini jalb qilgan holda kichik biznes, qishloq xo'jaligi sohalari, suv ta'minoti tizimi sohalari va avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirishga doir 4 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

OTB va O'zbekiston 2016-2018 yillarga mo'ljallangan mamlakat operatsion biznes rejasiga ko'ra jalb qilingan kreditlar yordamida quyidagi loyihalar amalga oshirilishi belgilangan.

3-jadval

OTB va O'zbekiston 2016-2018 yillarga mo'ljallangan mamlakat operatsion biznes-rejasi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar, mln. doll [8]

Sohalar	Ajratilgan mablag', mln dollar	Ulushi, %
Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar	250	13
Energetika	490	26
Moliya	205	11
Transport	605	32
Suv ta'minoti va sanitariya	340	18
Jami:	1890	100

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo Taraqqiyot banki va O'zbekiston 2016-2018 yillarga mo'ljallangan mamlakat operatsion biznes rejasi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarda katta ulushni transport sohasi egallagan bo'lib, loyiha doirasida 605 mln dollar mablag' ajratilgan. Bu jami rejalashtirilgan mablag'ning 32 foizi tashkil etadi. Keyingi o'rinda energetika sohasi bo'lib, energetikaga 490 mln dollar qiymatidagi mablag' ya'ni loyiha qiymatining 26 foizi doirasida ishlar amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarga 250 mln dollar, moliya sohasiga 205 mln dollar, suv ta'minoti va sanitari yo'nalishiga esa 340 mln dollar ajratilgan. Jami loyiha qiymatiga nisbatan tahlil qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi 13 foizni, moliya sohasi 11 foizni, suv ta'minoti esa 18 foizni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun amaliyotida xalqaro moliya institutlari turli mamlakatlar iqtisodiyoti real sektorini moliyalashtirish shu jumladan, kreditlash operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik mamlakat uchun nafaqat yirik mablag'larni iqtisodiyotga jalb etish imkonini beradi, balki jahon moliyaviy munosabatlarida o'z o'rnini va ovozigacha ega bo'lish imkoniyatini ham taqdim etadi. Shuning uchun xalqaro

moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish har bir davlat uchun muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlari bilan vakillik munosabatlari, banklararo operatsiyalar va savdoni moliyalashtirish sohasida o‘zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash OATB “Qishloq qurilish bank”ning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bankning ishonchli hamkorlari qatoriga Commerzbank AG (Germaniya), Jahon banki tarkibidagi Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi, shuningdek, Islom Taraqqiyoti Banki guruhiga kiruvchi Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo‘yicha Islom Korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki (Fillipin) kabi va boshqa xalqaro moliya institutlari kiradi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali, OATB “Qishloq qurilish bank” faoliyati yo‘nalishiga bevosita aloqador bo‘lgan, tashqi savdoni moliyalashni tashkillashtirish, qishloq xo‘jaligi va kichik biznes sub’ektlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, qishloq joylarda turar joyni kreditlash imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda bankning vakillik tarmog‘iga asosan hamkor xalqaro moliya institutlardan: Commerzbank AG (Germaniya), ATB “Promsvyazbank” (Rossiya), ATB “Russlavlbank”, ATB “Svyazbank”, YOAJ “Aziya-Invest Bank”, Novikombank va boshqa banklar kiradi.

Kelgusida Amerika va Yevropaning JP Morgan Chase-AQSh, Raiffeisen Bank-Avstriya kabi va boshqa yirik banklar bilan vakillik munosabatlarini o‘rnatish rejalashtirilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining rolini oshirish masalalari bo‘yicha quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

Birinchidan, real sektor korxonalari faoliyatining shaffofligi, axborotlar ochiqqligini ta‘minlash lozim. Buning natijasida xalqaro moliya institutlarining real sektor korxonalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishlarida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning real sektor korxonalarining eksport salohiyatini oshirish lozim, chunki bu jihat xorijiy valyutada olingan kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishiga imkon beradi. Bundan tashqari kreditlash jarayonini tezlashtiradi.

Uchinchidan, real sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan xorijiy valyutada xalqaro qimmatli qog‘ozlar muomalasini tashkil etish kerak. Buning natijasida qimmatli qog‘ozlar muomalasi orqali xalqaro moliya institutlaridan real sektor korxonalariga moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov.I.A. “Asosiy vazifamiz-taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. ”- Toshkent: “O‘zbekiston” 2010 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – 120b.
4. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borilayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishdir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2699-sonli Qarori. 2016-yil 27-dekabr.
6. Arifjanova Ya. “O‘zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligini rivojlantirish masalalari”.// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnali №3. 2016.
7. www.cb.uz – (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki veb sayti.)
8. www.adb.org – (Osiyo taraqqiyot banki veb sayti)